

9-sinf O'zbekiston tarixi

5-dars: XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayoti.

Darsning maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo xalqlari ijodiyoti, xalq ijodiyoti: baxshilar, qiziqchilar, hofizlar, askiyachilar, arxitektura haqida tushunchalar berish.

Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

2. Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

Vatanga sadoqatli, insonlarga mehroqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish;

Xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, ta'lim muassasasida va jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad:

Shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

O'quvchilarda umumlashma xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish;

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Yangi bilim beruvchi, bilimlarni shakllantiruvchi
Dars metodi:	"Interfaol metodlar", "Guruhlarda ishlash", "Klaster"
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

DARSNING BLOK CHIZMASI:

No	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	8 daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	14 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa



Yangi dars mazmunining tayanch tushunchalari, atamalari, tarixiy sana va nomlar:

Xalq dostonlari, Munis, Ogahiy, Ahmad Donish, Fazliy, Malik ush-shuaro, 1812-1872, «Ravzat us-safo», «Firdavs ul-iqbol», «Navodir ul-vaqoi», «Majmuat ush-shuaro». Muhammad Rahim, Muhammad Aminxon madrasalari, Xudoyorxon saroyi, Tillashayx masjidi, 1851-1855, 1870, 1871, 1862, 1863-1870-yillar.

DARSNING BOBISHI

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:



“Guruhlarda ishlash”



O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzuga oid atamalardan o'z guruhlariga nom qo'yib olishadi hamda guruhga qo'yilgan nomga qisqacha ta'rif berishadi.

1-topshiriq: Bunda «Klaster» usulidan foydalaniladi.

O'qituvchi vatman qog'ozining markazida ikkita doira chizadi va ularda birining ichiga «Soliq turlari», ikkinchisiga «Hunar turlari» deb yozadi. O'quvchilar soliq va hunar turlarini yozib chiqishlari kerak.



O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish:

Bu vazifa quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

1. **Xalq ijodiyoti;**
2. **Ilm-fan. Adabiyot;**
3. **Me'morchilik;**
4. **O'rta Osiyo xalqlari madaniyatining o'ziga xosligi.**

Xalq ijodiyoti



Xalq tomoshalari

Xonliklardagi aholining aksariyati o'zbek tilida so'zlashgan. Bu tilda oliyhimmat qahramon va bahodirlarning jasorati, ularning g'alabalari va adolat uchun kurashlari sharaflangan xalq dostonlari — qahramonlik eposlari keng tarqalgan. XIX asrda qirqqa yaqin doston ma'lum bo'lib, «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish», «Shirin va Shakar» dostonlari ularning eng mashhurlari edi. Xalq baxshilari tomonidan bayramlar, xalq sayillarida sadoqatli do'stlik va chin muhabbatni ulug'lovchi «Tohir va Zuhra», «Bo'z yigit» dostonlari kuylangan.

Aholi orasida xalq og'zaki ijodiyoti katta o'rin egallagan. Ularda amaldorlarning illatlari, saroy a'yonlarining nuqsonlari va ochko'zligi kulgi ostiga olinar edi. Ba'zi insofsiz amaldor va boylar qoralangan hamda mehnatkash xalqning olijanoblighi, mardligi madh etilgan. Dostonlarda ko'pincha ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi g'oyasi yetakchilik qiladi. Ularda xalqni zolimlardan himoya qilish, noinsof beklar va xonlarni fosh etish, oddiy kishilarga nisbatan mehr-muruvvat kabilar aks etgan. O'zlari mavzular to'qib, ularni o'zlari ijro etgan qiziqchilar va askiyachilar ham o'zbek adabiyoti hamda folklorining rivojida salmoqli hissa qo'shganlar. Har yili bahorda



shahar va qishloqlar atroflaridagi bog'lar va chorbog'larda, qir-u adirlarda xalq sayillari o'tkazilar edi. Xalq sayillarida sayyor sirk truppalari bozor maydonlarida o'z tomoshalarini ko'rsatib, aholini xushnud qilgan Polvonlar o'rtasida kurash musobaqalari o'tkazilgan. Novvoyxonalar, choyxonalar, oshxonalar ochilib, ularda milliy taomlar tayyorlanar, hofizlar, inashshoqlar kuylar, ko'zboyoqchilar, dorbozlar, hayvon o'ynatuvchilar, qo'g'irchoq teatrlari tomoshalar ko'rsatar, askiyachilar davrada o'zaro musobaqalarda bellashgaa

Yuqorida aytib o'tilganlarning barchasi uchala davlat aholisi uchun yagona bo'lgan xalq madaniyatining tarkibiy qismini tashkil etadi. Xalq madaniyati siyosiy jihatdan inqirozli davrda ham rivojlanib borgan.

Ilm-fan. Adabiyot



Ahmad Donish

Bu davrda Xiva va Qo'qon xonliklari, Buxoro amirligida ilm-fan ma'lum darajada rivojlangan. Xiva xonligida Eltuzar (1804-1806) farmoyishi bilan Shermuhammad Munis Xorazmning 1812-yilga qadar bo'lgan tarixini yozgan. Uning asl ismi Shermuhammad Amir Avazbiy o'g'li bo'lib, tarixchi, ayni paytda shoir, tarjimon, xattot, ma'rifatparvar bo'lgan. U 1819-yilda Mirxondning «Ravzat us-safo» («Soflik bog'i») tarixiy asarini o'zbek tiliga tarjima qilishni boshladi va asarning I-jildini tarjima qilishga ulgurdi. Uning «Firdavs ul-iqbol» («Baxtlar bog'i») asarini va «Ravzat us-safo» tarjimasini shogirdi va jiyani Ogahiy nihoyasiga yetkazdi. Ogahiyning asl ismi Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'li bo'lib, 1809-1874-yillarda yashagan. 16 ta tarixiy, ma'rifiy, tarjima asarlar muallifi. U arab, fors, turk tillarini puxta bilgan va Xorazmning 1812-1872-yillardagi tarixiga bag'ishlangan asar yozgan. Xiva xonligi tarixiga oid «Riyo ud-davla», «Zubdat ut-tavorix», «Gulshani davlat», «Shohidi iqbol» nomli asarlar yozgan. Ogahiyning xalqparvarligi va xalq holiga befarq emasligi uning «Qish» g'azalida o'zining yorqin ifodasini topgan. Ogahiy

she'riyati, tarixnavislik va tarjimonlik faoliyati O'rta Osiyo hududidagina emas, balki XIX asr Sharq dunyosi madaniy hayotida chuqur iz qoldirdi.

Buxoro amirligida ham bir qator ilm-fan namoyandalari yetishib chiqdi. Ulardan biri yozuvchi, faylasuf, musawir, ma'rifatparvar Ahmad Donish edi. U Buxoro amiri Nasrulloning elchilari bilan 1857-yilda Moskva, Peterburg va boshqa Rossiya shaharlari bo'yab sayohat qilgan. U «Buxorodan Peterburgga sayohat», «Buxoro sharif mang'it amirlari muxtasar tarixi», «Navodir ul-vaqoe'» («Nodir voqealar») asarlarining muallifidir. Ahmad Donish 1865-yilda amir Muzaffar taklifi bilan «Manozir ul-kavokib» («Sayyoralarning joylanishlari») nomli astronomiyaga oid kitob yozgan. U faqat Buxoro amirligi emas, balki O'rta Osiyoning boshqa xonliklarida ham eng ko'zga ko'ringan madaniyat arbobi sifatida tanilgan edi.

Me'morchilik

XIX asrda ham O'rta Osiyo davlatlari shaharlarida qurilish ishlari rivojlangan. Ayniqsa, Xiva xonligida XIX asr o'rtalariga borib qurilish ishlari avj oldi. Bu davrda Xiva va boshqa shaharlarda ko'plab imoratlar - saroy, bozor, madrasa, masjid, xonaqoh kabi inshootlar qurildi. Ollohqulixon madrasasi, Rahmonqul Inoq saroyi, Ichan qal'adagi Muhammad Aminxon madrasasi (1851—1855), Ark darvozasi qarshisida Muhammad Rahimxon madrasasi (1871) bugungi kunda ham Xiva shahrining ko'rki hisoblanadi. Ularning devorlari o'sha davr Xorazm me'morchiligiga xos bo'lgan usulda, tiniq zangori rang ustidan oq va yashil gullar tushirilgan koshinlar bilan bezatilgan.



Qo'qon xonligida bu davrda Hazrati Kalon Sohizoda madrasasi (1862), Hokim Oyim madrasasi (1869—1870), Sulton Murodbek madrasasi (1872) qurib bitkazilgan. Ularning ichida XIX asr ikkinchi yarmi noyob arxitektura yodgorligi hisoblangan yuzdan ortiq xonadan iborat Xudoyorxon saroyi (1863-1870) alohida o'rin tutadi. U o'zining bezaklari, naqshlari rang-barangligi, yorqin jilosi bilan ajralib turadi.

Oqituvchining qisqa ma'ruzasidan keyin o'quvchilar DVD da « O`rta Osiyo mamlakatlari arxitekturasi» mavzusidagi o`quv filmi tomosha qiladi (VIDEO: 4-ILOVA). Bu jarayonda o`qituvchining o`zi faol bo`lishi nazarda tutiladi.

O'rta Osiyo xalqlari madaniyatining o'ziga xosligi

Bu davrda ikki tilda (zullisonayn), ya'ni o'zbek va fors tillarida ijod qilingan. Ayni mahalda bu madaniyatda o'zbek adabiyotining ulug' namoyandalar, ayniqsa, Alisher Navoiy asos solgan insonparvarlik va demokratik an'analar muhim o'rin tutgan.

O'rta Osiyo xalqlarining mushtarak tarixi mustahkam do'stlik zaminiga qurilgan edi. Minglab she'rlar, g'azallar va og'zaki rivoyatlar og'izdan og'izga o'tib, bahodir yigitlar jasoratini madh etar, botirlar va pahlavonlar haqida kuylar, sadoqat, mardlik, do'stlik va muhabbat haqidagi dostonlar odamlarda ishonch, o'zaro hunnat tuyg'ularini uyg'otib, ezgulikka da'vat etardi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:



Darsning bu bosqichi quyidagi savol-topshiriqlar yozilgan kartochkalarni o'quvchilarga (guruhlarga) tarqatish orqali bajariladi:

1-topshiriq: «Klaster usuli». Guruhlarga bo'linib, quyidagi jadval har bir guruhga beriladi va ochiq qolgan doiralar to'ldiriladi.





1-guruhga: Ogahiy asarlari.

2-guruhga: Xalq dostonlari



3-guruhga: Adabiyot

4-guruhga: Me'morchilik



Guruh sardorlari doskaga vatmanlarni osib javoblarni izohlab berishadi.

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

V. Dars yakunlarini chiqarish:



Yakunlarni chiqaramiz!

- ▶ Xalq ijodiyoti: baxshilar, qiziqchilar, hofizlar, askiyachilar.
- ▶ Munis (1778-1829), Ogahiy (1809-1874), Ahmad Donish (1827-1897).
- ▶ Xattotlik: Muhammad Yunus, Turdi AH.
- ▶ Me'morchilik: Muhammad Aminxon, Hazrati Kalon Sohibzoda, Tillashayx.



O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish;
Baholarni e'lon qilish.

O'quvchilar aytib o'tgan fikrlari to'planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so'nggi xulosasi chiqariladi

VI. Uyga vazifa:



Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.

Kelgusi darsda o'tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo'shimcha manbalarni izlab topish.

Quyidagi jadvalni to'ldiring.

Alloma nomi	Yashagan yili	Asarlari



Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:



Telefon: (+99894)-918-02-27



Sayt: Shuhratbek.uz



Muallifi: Shuhrat Nurg'oziyev Xasanovich